


Navoiy viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020- yil yanvar-sentabr (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)


O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Navoiy viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Uchquduq tumanida 5 067,4 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 148,2 %), Zarafshon shahrida 4 832,5 ming so'mni (141,4 %), Navoiy shahrida 3 593,7 ming so'mni (105,1 %) tashkil etgan bo'lsa, aksincha Qiziltepa tumanida 1 670,8 ming so'mni (48,9 %), Xatirchi tumanida 1 755,8 ming so'mni (51,4 %), Nurota tumanida 1 748,2 ming so'mni (51,1 %), Navbahor tumanida 1 792,0 ming so'mni (52,4 %) Tomdi tumanida 2 083,6 ming so'mni (61,0 %), Karmana tumanida 2 636,5 ming so'mni (77,1 %), Konimex tumanida 2 864,8 ming so'mni (83,8 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2020- yil yanvar-sentabr, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Viloyat bo'yicha **2020- yil yanvar-sentabr** oylarida iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ulushi jamiga nisbatan: bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (159,8 %), sanoatda (138,3 %), qurilishda (117,3 %), savdoda (75,3 %), axborotlashtirish va aloqada (74,0 %), ta'lim sohasida (55,8 %), tashish va saqlashda (63,6 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olishda (56,5 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (52,0 %) va boshqa yo'nalishlarda (79,1 %) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2020- yil yanvar-sentabr, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)





Yuridik shaxslarda xodimlar soni, ish haqi fondi va o'rtacha oylik ish haqi


2020- yil yanvar-sentabr

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, ming kishida	Ish haqi fondi, mln. so'mda	O'rtacha oylik ish haqi ming so'mda
Navoiy viloyati bo'yicha - jami	158,9	4 870 739,0	3 418,2
shu jumladan			
Sanoat	74,0	3 148 198,7	4 726,9
Qurilish	4,4	158 417,1	4 009,5
Savdo	1,4	32 446,1	2 573,2
Tashish va saqlash	1,8	34 901,0	2 172,5
Axborot va aloqa	0,8	15 337,4	2 528,4
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	2,1	103 442,1	5 462,7
Ta'lim	40,2	690 116,9	1 908,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	17,1	273 231,1	1 778,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1,0	17 772,2	1 930,3
Boshqa faoliyat turlari	16,3	396 876,4	2 704,4

Navoiy viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili 2020- yil yanvar-sentabr (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Sanoat sohasida 34 ta korxonada 74 002 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,6 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 3 148 198,7 mln. so'mni tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 4 726,9 ming so'mni tashkil etdi.



Ta'lim sohasida 688 ta muassasada 40 176 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 25,3 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 690 116,9 mln. so'mni tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 908,6 ming so'mni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 44 ta muassasada 17 073 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,7 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 273 231,1 mln. so'mni tashkil etgan. Hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 778,2 ming so'mni tashkil etdi.





Savdo sohasida 12 ta korxonada 1 401 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 32 446,1 mln. so'mni tashkil etgan. Savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 573,2 ming so'mni tashkil etdi.

Qurilish sohasida 9 ta korxonada 4 390 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,8 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 158 417,1 mln. so'mni tashkil etgan. Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 4 009,5 ming so'mni tashkil etdi.



Axborot va aloqa sohasida 9 ta korxonada 674 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 15 337,4 mln. so'mni tashkil etgan. Axborot va aloqa sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 528,4 ming so'mni tashkil etdi.



Tashish va saqlashda 14 ta korxonada 1 785 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 34 901,0 mln. so'mni tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 172,5 ming so'mni tashkil etdi.



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 45 ta muassasada 2 104 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,3 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 103 442,1 mln. so'mni tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 5 462,7 ming so'mni tashkil etdi.



Boshqa faoliyat turlarida 889 ta korxonada 16 306 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,3 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 396 876,4 mln. so'mni tashkil etgan. Boshqa faoliyat turlarida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 704,4 ming so'mni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumot)

Navoiy viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)

	<i>iyul</i>	<i>avgust</i>	<i>sentyabr</i>	<i>yanvar-sentyabr</i>
Navoiy viloyati	3 400,4	3 515,8	3 562,1	3 418,2
Navoiy sh.	3 551,9	3 687,4	3 762,0	3 593,7
Zarafshon sh.	4 779,9	5 263,7	5 224,7	4 832,5
tumanlar:				
Karmana	3 547,9	2 442,2	2 488,2	2 636,5
Konimex	2 660,5	2 888,5	2 917,8	2 864,8
Qiziltepa	1 526,1	1 541,2	1 700,1	1 670,8
Navbahor	1 621,7	1 659,3	1 797,2	1 792,0
Nurota	1 554,5	1 591,7	1 798,0	1 748,2
Tomdi	2 115,0	2 120,1	2 014,2	2 083,6
Uchquduq	4 827,6	5 478,8	5 286,3	5 067,4
Xatirchi	1 615,1	1 682,4	1 862,4	1 755,8

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2020- yil mart oyida 679,3 ming so'mni tashkil etgan, Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 18- yanvardagi 47- sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3- razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Navoiy viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)



Navoiy viloyat statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi
(79) 223 07 41